

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAYFULLAYEVA ZAYNAB SUNNAT QIZI

**ASALNI FIZIK-KIMYOVIY TADQIQ ETISH, TOVARLAR
NOMENKLATURASI BO‘YICHA SINFLASH VA SERTIFIKATLASH
HAMDA ULARNING XAVFSIZLIK BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI**

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Sayfullayeva Zaynab Sunnat qizi

Asalni fizik-kimyoviy tadqiq etish, tovarlar
nomenklaturasi bo‘yicha sinflash va sertifikatlash
hamda ularning xavfsizlik bilan o‘zaro bog‘liqligi.....3

Сайфуллаева Зайнаб Суннат кизи

Физико-химические исследования мёда,
её классификация и сертификация по товарной
номенклатуре, также их взаимосвязь с безопасностью.....21

Sayfullayeva Zaynab Sunnat qizi

Physico-chemical studies of honey , its classification and
certification according to the commodity nomenclature,
and their relationship with safety39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAYFULLAYEVA ZAYNAB SUNNAT QIZI

**ASALNI FIZIK-KIMYOVIY TADQIQ ETISH, TOVARLAR
NOMENKLATURASI BO‘YICHA SINFLASH VA SERTIFIKATLASH
HAMDA ULARNING XAVFSIZLIK BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI**

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/T1711 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tkti.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamrakulov Gafurjan
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmadallyev Maxamadjon
Axmadallyevich
texnika fanlari doktori, professor

Abdulloyev Obidjon Shaxobiddinovich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning «13» 11 2023 yil soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel.: (99877) 223-88-30; faks: (99871) 223-84-33; e-mail: abshax@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel.: (99877) 223-88-30)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 13 » 11 kuni tarqatildi.
(2023 yil « 13 » 14 daqi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).



X.Isakov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, k.f.d.(DSc)

Sh.V.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi salomatligini ta'minlash maqsadida iste'mol bozorlariga sifatli va havfsiz oziq – ovqat mahsulotlarini yetkazib berish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shifobaxsh ne'matlarning biri – tabiiy asal tarkibida inson organizmi uchun zarur va foydali yuzdan ortiq biologik moddalar hamda tana faoliyati uchun muhim glyukoza, oqsil, fruktoza, organik kislotalar, aminokislotalar, mikro va makroelementlar mavjud. Shu jihatdan aholiga yetkazib berilayotgan tabiiy asalning sifat va havfsizligini ta'minlash, uning iste'mol xususiyatlarini fizik – kimyoviy usullar yordamida tadqiq etish va ular asosida havfsizlik mezonlarini belgilash borasidagi ilmiy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda bugungi kunda oziq – ovqat mahsulotlarini bojxona ekspertizasidan o'tkazishni takomillashtirish, tashqi savdo faoliyatini liberallashtirish, tovarlarni identifikatsiyalash, tovarlar almashtirishning oldini olish, taqdim etilgan hujjatlardagi tovar nomlarini tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) ning tovar pozitsiyasi matniga va bo'limlar hamda guruhlarining izohlariga mosligi haqidagi ma'lumotlarni aniqlash usullari yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarkibida inson organizmi uchun foydali mikro – va makroelementlarga boy bo'lgan tabiiy asalning xossalari, botanik kelib chiqishi, tarkibidagi uglevodlar miqdori va shu kabi ko'rsatkichlarini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida o'rganish, shuningdek kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha sinflash hamda amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda aholi salomatligini ta'minlash hamda mamlakatning eksport potentsialini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsadida, iste'molchilarga sifatli va havfsiz mahsulotlar yetkazish bo'yicha qator chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida tovarlar oqimining ko'payishi va tovarlarni bojxona maqsadlarida identifikatsiyalash bo'yicha metodologik usullarni takomillashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) qatnashchilari va bojxona xodimlarining TIF asosida tovarlarni tasniflash to'g'risidagi qarorlar qabul qilish jarayonini soddalashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, xususan «eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish, bojxona ekspertizasini takomillashtirish»¹ bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, foydali elementlarga boy bo'lgan tabiiy asalni eksport potentsialini oshirish, inson salomatligini ta'minlash uchun aholiga sifatli va havfsiz mahsulotlar yetkazish, shuningdek ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalarni o'rganish hamda TIF TN bo'yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF 60-son Farmoni, 2018 yil 2 noyabrdagi «Bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida»gi PF 5582-son Farmoni, 2017 yil 16 oktyabrdagi «Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3327-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Asalni fizik – kimyoviy tadqiq etish va identifikatsiyalash borasida xorijda I.P.Chepurnoy, V.I.Zaikina, Ye.V. Korniyenko, N.A.Grinevich, O.A.Yarova, Stefan Bogdanov, A.P.Zvyagina, V.G.Chudakov kabi olimlar izlanishlar olib borishgan. Mamlakatimizda esa bu boradagi izlanishlar asosan asalarichilikni tashkil qilish va rivojlantirish, asalari kasalliklari borasidagi izlanishlar bo‘lib, ular R.X.Pulatova, A.I.Isamuxamedov, H.K.Nikadambayev, M.K.Minzafarov kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Tovarlarni TIF TN ga muvofiq identifikatsiyalash va tasniflash metodologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha Ye.I.Andreyeva, A.V.Nesterov, N.N.Alekseyeva, G.Yu. Fedotova, M.A.Nikolayeva, S.V.Baramzin, V.G.Draganov, V.Ye.Novikov kabi xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur 02.00.09 tovarlar kimyosi ixtisosligi O‘zbekistonda kimyo fanlari doktori, professor I.R.Asqarov tomonidan 2017 yilda yaratilgan. Bu ixtisoslik rivoji uchun yurtimizda I.R.Asqarov, A.A.Ibragimov, G‘.X.Hamroqulov, K.M.Karimqulov, B.Yo.Abdug‘aniyev, L.T.Pulatova, N.X.To‘xtaboyev, Sh.M.Kirgizov, M.M. Xojimatov, Sh.X.Abdulloyev, M.G‘.Xamroqulov, R.Murzayev va boshqalar o‘zlarining hissalarini qo‘shishgan.

Yuqoridagi olimlar tomonidan tovarlarni bojxona maqsadlarida identifikatsiyalash, tasniflash va sertifikatlash tamoyillari ishlab chiqilgan, shuningdek ushbu tovarlarni identifikatsiyalash va bojxona ekspertizasi yordamida kimyoviy tarkibi asosida aniqlangan TIF TN kod raqamlarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash, sifat menejmenti tizimi va tovarlarni tasniflash» yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tabiiy va sun‘iy asalni sertifikatlash tizimini takomillashtirish hamda ularga botanik kelib chiqishi va kimyoviy tarkibi asosida

tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha yangi tovar kod raqamlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asalning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omil – amilaza fermenti(diastaza soni)ni tadqiq etish;

O'zbekiston Respublikasi TIF TN ga kiritish uchun paxta, grechka, jo'ka(lipa) gullaridan olingan asalning kimyoviy tarkibi, botanik kelib chiqishi hamda sun'iy asalning iste'mol xossalari asosida yangi tovar kodlarini ishlab chiqish va ularga tavsifnoma va izoh tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari amaliyotida qo'llash uchun asalni bojxona ekspertizasining tezkor va samarador hamda uning tarkibidagi prolin aminokislotasining miqdorini aniqlash usullarini ishlab chiqish;

qo'shimchalar bilan tabiiy asal ishlab chiqarish bo'yicha tashkilot standarti(Ts)ni va unga asosan sertifikatlashtirish jarayonini takomillashtirish maqsadida sinov dasturini ishlab chiqish;

gomogenlash jarayonini qo'llagan holda qo'shimchalar bilan tabiiy asal ishlab chiqarish texnologiyasi va retsepturasini yaratish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida paxta, grechka, dasht va tog' gullaridan yetishtirilgan tabiiy asal hamda qo'shimchalar qo'shilgan tabiiy "BARAKA" asali olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasi TIF TNning 0409 tovar pozitsiyasiga kiruvchi tabiiy asal, 1702 tovar pozitsiyasiga kiruvchi sun'iy asalni tasniflashning iyerarxik va faset usullari hamda tovar ekspertisasi va uning muhim tarkibiy elementlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida organoleptik usul(GOST 19792) va yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, infraqizil spektroskopiya, refraktometriya, gaz-suyuqlik xromatografiyasi kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor tabiiy asalning kimyoviy tarkibi va botanik kelib chiqishi hamda sun'iy asalning iste'mol xossalariidan kelib chiqib, amaldagi tovar kodlariga qo'shimcha ravishda yangi tovar kodlari ishlab chiqilgan;

munozarali holatlarda iste'molchini yoki nazorat qiluvchi tashkilotning talabiga ko'ra tabiiy asaldagi prolin aminokislotasi miqdorini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

zamonaviy fizik-imyoviy usullar yordamida eksport va import qilinayotgan asalning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashning tezkor usullari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan tashkilot standarti (Ts) talablari bo'yicha qo'shimchalar bilan tabiiy asalni muvofiqligini baholash imkonini beruvchi sinov dasturi yaratilgan;

gomogenlash jarayonini qo'llagan holda qo'shimchalar bilan tabiiy asal olish texnologiyasi va retsepturasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tabiiy asal uchun TIF TNning 0409 00 000 0 kodini detallashtirish natijasida yettita yangi 0409 00 000 1, 0409 00 000 2, 0409 00 000 3, 0409 00 000 4, 0409 00 000 5, 0409 00 000 6 hamda 0409 00 000 9 kodlari ishlab chiqilgan;

sun'iy asal uchun TIF TNning 1702 90 950 0 kodi o'rniga uchta yangi 1702 90 950 1, 1702 90 950 2 hamda 1702 90 950 9 kodlari ishlab chiqilgan;

tabiiy asalning aslligini baholashning zamonaviy fizik-kimyoviy usullarga asoslangan tezkor usullari yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari, organoleptik, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi IQ-spektroskopiya, refraktometriya, gaz-suyuqlik xromatografiyasi kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan foydalanib olingani, natijalarning ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, amaliy natijalarini bojxona organlari faoliyatiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tabiiy va sun'iy asalning kimyoviy tarkibi va tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari, iste'mol xususiyatlari yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi IQ-spektroskopiya, refraktometriya, gaz-suyuqlik xromatografiyasi kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sertifikatlashtirish jarayonini takomillashtirish maqsadida qo'shimchalar bilan asal ishlab chiqarish uchun tashkilot standarti ishlab chiqilganligi, asal uchun sinov dasturi yaratilganligi, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali uning aslligini aniqlashning tezkor usullari ishlab chiqilganligi hamda tabiiy va sun'iy asal uchun TIF TN bo'yicha yangi tovar kod raqamlari ishlab chiqilib, bojxona amaliyotiga taqdim etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga muvofiq tabiiy va sun'iy asalning iste'mol hususiyatlariga ko'ra tasniflanishini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha "tabiiy asal" va "sun'iy asal" uchun ishlab chiqilgan 0409 00 000 1, 0409 00 000 2, 0409 00 000 3, 0409 00 000 4, 0409 00 000 5, 0409 00 000 6, 0409 00 000 9 hamda 1702 90 950 1, 1702 90 950 2, 1702 90 950 9 yangi kod raqamlari bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2022 yil 10 avgustdagi 16/05-22-0465-son ma'lumotnomasi). Natijada, tabiiy va sun'iy asalni kod raqamlarini to'g'ri aniqlash oqibatida mamlakat iqtisodiyoti havfsizligini ta'minlash hamda bojxona statistikasini to'g'ri yuritish imkonini bergan;

tabiiy asalning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash asosida uning aslligini tekshirishning tezkor usullari, hamda tabiiy asal tarkibidagi prolin aminokislotasini aniqlash usuli bojxona amaliyotiga joriy etilgan (Davlat bojxona qo'mitasining 2022 yil 10 avgustdagi 16/05-22-0465-son ma'lumotnomasi). Natijada, tabiiy asalni eksport va import jarayonlarida uning tarkibini tezkor va samarali aniqlash imkonini bergan;

tabiiy asal uchun ishlab chiqilgan kompleks sinov dasturi "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" Davlat muassasasi va uning hududiy filiallari amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi davlat muassasasining 2022 yil 28 noyabrda 12-1162-son ma'lumotnomasi). Natijada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha texnik reglament talablari asosida sertifikatlash tizimini takomillashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyadan o'tkazish. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan, 10 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy konferentsiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shulardan 7 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 4 ta ilmiy maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning amaliyotga joriy etilishi bayon qilingan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tabiiy asalning tavsifi va xususiyatlari hamda uni sinflash va sertifikatlash**», deb nomlangan birinchi bobida asalning kimyoviy tarkibi hamda sifat va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi ko'rsatkichlar tahlili, tabiiy asalni qalbakilashtirish va ularni aniqlash usullari, uni ekspertiza qilishdagi muammolar hamda ularni bartaraf etishda qo'llaniladigan zamonaviy usul va vositalar, "tovarlar kimyosi" ixtisosligining yaratilishi, maqsadi va vazifalari, bojxona maqsadlarida tovarlarni identifikatsiya qilish, tasniflash va sertifikatlashning ahamiyati tahlil qilingan.


Dissertatsiyaning «**Tadqiqot ob'ektlari hamda asalning sifat va havfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash usullari**», deb nomlangan ikkinchi bobida paxta, grechka, kungaboqar, dasht va tog' gullaridan olingan asal tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganildi. Turli o'simlik gullaridan olingan asalning sifat va havfsizligini ta'minlovchi ko'rsatkichlari organoleptik (GOST 19792) va zamonaviy fizik – kimyoviy tahlil usullari yordamida tadqiq etildi. Asal IQ –spektroskopiya, yuqori samarali suyuqlik xromotografiya, refraktometriya, gaz-suyuqlik xromotografiya kabi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilindi. Asal tarkibidagi uglevodlar miqdori asal qandlarini xromatografik ajratish, ularni refraktometrik

detektor bilan ro'yxatga olish orqali miqdoriy aniqlashga asoslangan yuqori samarali suyuq xromatografiya (YUSSX) usuli yordamida o'rganildi. Asalning IQ-spektrometrik tahlili Nicolet iS50 IQ-Furye spektrometrida 400 4000 sm^{-1} yutilish chiziqlaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Asalning aminokislotalar tarkibini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar Agilent Technologies 1200 yuqori samarali suyuq xromatografiya usuli yordamida 75 * 4,6 mm lik Discovery HS C18 ustunida o'tkazildi. Asal tarkibidagi xlororganik pestisidlar miqdori "Кристаллюкс 4000M" gaz-suyuqlik xromatografiyasida amalga oshirildi. Og'ir metallar bo'yicha tadqiqotlar Polyarograf "ABC -1.1" uskunasi yordamida amalga oshirildi. Asal tarkibidagi amilaza fermenti aktivligi (diastaza soni) PИЛ-3 №68-800 refraktometr yordamida tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning «**Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishni muqobillashtirish maqsadida asalni tasniflashni takomillashtirish**», deb nomlangan uchinchi bobida tabiiy asal yetishtirish bo'yicha mamlakatimizda va jahondagi holat bayoni, asalning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari tahlili muhokama qilinib, uni identifikatsiyalash jarayonini takomillashtirish maqsadida Davlat bojxona qo'mitasiga joriy etilgan tezkor samarali usullarning uslubiy asoslari yoritilgan.

Asal yetishtirishni rivojlantirish bo'yicha jahonda hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami borgan sari kengayib bormoqda.

Xozirgi kunda respublikamizda asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada ko'paytirish, asalni qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, asalarichilik sohasidagi ilg'or tajribalarni respublikamizning barcha hududlarida tatbiq etish maqsadida jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, asal O'zbekistondan turli mamlakatlarga eksport qilingan bo'lib, uning eng katta qismini Amerika Qo'shma Shtatlariga qilingan eksport tashkil etadi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida asal eksporti va importi bo'yicha ma'lumot

Jahonda asal eksporti bo'yicha bir necha yillar mobaynida davrlarlar o'rtasida Xitoy yetakchilik qilayotgan edi, so'nggi ikki yil yakuni bo'yicha Yangi Zelandiya o'zining "manuka" butasimon o'simlik gullaridan olingan yuqori sifatli asalni eksport qilishi bilan birinchilikni egallagan. Asal importi yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga esa Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya va Yaponiya kiradi.

Tabiiy asalning xalqaro savdodagi ko'lamini inobatga olgan holda uning sifatini hamda iste'mol xossalarini belgilovchi omillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etganligi sababli, asalning sifat ko'rsatkichlarini tadqiq etish maqsadida uning amilaza fermenti faolligini ifodalovchi diastaza soni tadqiq etildi. Amaldagi GOST 19792-2017 standart talablariga ko'ra eng past diastaza soni oq akatsiya gullaridan olingan asal uchun 5 Gote birligidan kam bo'lmagan miqdorda, qolgan barcha asal turlari uchun esa bu ko'rsatkich 8 Gote birligidan oshmasligi belgilangan.


Biz tomonimizdan tadqiq etilgan namunalarni GOST talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida ularning amilaza fermenti faolligi (diastaza soni), asalning namlik miqdori va umumiy kislotalilik kabi ko'rsatkichlari tadqiq qilindi va 1-jadvalda keltirilgan natijalar olindi.

1-jadval

Asalning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich nomi	Paxta gulidan olingan asal	Kungaboqar gulidan olingan asal	Dasht gullaridan olingan asal	Tog' gullaridan olingan asal	Grechka gulidan olingan asal
Diastaza soni, Gote birl.	23,8	15,8	6,5	18,5	10,9
Asaldagi suv ulushi, %	18,2	19,8	19,0	19,2	17,8
Umumiy kislotalilik, sm ³	3,0	3,0	3,8	3,0	2,8

Shuningdek asaldagi uglevodlar sonini aniqlash maqsadida amilaza fermenti aktivligini ifodalovchi diastaza soni yuqori va past ko'rsatkichga ega ikkita namuna tanlab olinib, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi yordamida tahlil qilingan. Bunda tadqiq etilgan namuna xromatogrammalari (2-rasm) standart namuna xromatogrammalari bilan solishtirildi.



2-rasm. Dasht gullaridan olingan asal xromatogrammasi.

2-rasm ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, 6,177 daqiqada olingan cho'qqi fruktozaga tegishli bo'lib, 7,448 daqiqadagi chuqqi glyukozani ko'rsatadi, 11,663 daqiqada olingan cho'qqi esa asal tarkibidagi saxarozani ko'rsatadi. Asaldagi uglevodlarning massa ulushininig ko'rsatkichlarini 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2 - jadval


O'rganilgan asal namunalaridagi uglevodlar miqdorini aniqlash natijalari

№	Uglevodlar (%)			Jami tarkib, %
	Fruktoza	Glyukoza	Saxaroza	
Dasht gullaridan olingan asal	33,01	43,73	11,27	88
Paxta gulidan olingan asal	43,04	48,53	0,18	91,75

GOST 19792-2017 da saxarozaning ulushi 5% dan oshmasligi belgilangan, o'rganilgan namunamizda esa bu ko'rsatkich 11,27 % ni tashkil etmoqda. Shunday qilib, dasht o'simliklaridan olingan asal namunasi undagi saxaroza miqdori bo'yicha me'yoriy hujjat talablariga mos kelmasligi ma'lum bo'lgan. Bu esa shakar siropini qo'shish yoki asalarilarni shakar bilan oziqlantirish orqali uning qalbakilashtirilganligini ko'rsatadi.

Asalning xavfsizligini tadqiq etish maqsadida «Кристал-Люкс 4000М» gaz-suyuqlik xromotografiyasi yordamida pestitsid va insektisid miqdori tahlili qilinib, o'rganilgan ikkita namunadan birinchisi (2019 yil tog' gullaridan olingan asal)da Geksaxlortsiklogeksan (GXSG) ning gamma izomerining miqdori(0,019 mg/kg) o'rnatilgan talabdan (0,005 mg/kg) ko'p ekanligi, ikkinchi namuna (dasht


gullaridan olingan asal)da esa GXSG ning alfa va gamma izomerlari mos ravishda 0,005 va 0,008 mg/kg miqdorda aniqlandi (3-rasm).



3-рasm. Tog‘ asali namunasining pestitsid va insektitsidlar bo‘yicha tahlili

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga ko‘ra insektitsidlar miqdori sezilarli darajada bo‘lib, xavfsizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha talabga javob bermasligi aniqlandi.

Asal tarkibidagi og‘ir metallar Polyarograf “ABC -1.1” yordamida tadqiq qilindi (4- rasm).



4- rasm. Tog‘ asali namunasidagi og‘ir metall tuzlarining voltamperogrammasi

O'rganilgan namunalardagi og'ir metall tuzlari SanQvaM 0366-19 da belgilangan miqdordan oshmaganligi aniqlandi.


Asal tarkibi hamda sifatini kompleks tahlil qilish maqsadida, asaldagi aminokislotalar miqdori ham tadqiq etildi.

Asal tarkibida juda ko'p miqdorda fermentlar, gul changi zarralarining oqsillari va erkin aminokislotalar mavjud bo'lib, asaldagi aminokislotalarning miqdori yetilganlik va tabiiylikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Asal tarkibidagi aminokislotalardan prolin ($C_5H_9NO_2$) yetakchi o'rin egallaydi, bu esa o'z navbatida asal uchun GOST 19792 -2017 da qo'yilgan talablarida ham o'z aksini topgan. Shu bilan birga asalning tarkibida alanin, arginin, aspargin va glutamin kislotasi, valin, leytsin, lizin, treonin, fenilalanin xam mavjud.

Aminokislotalarning assortimenti asalning botanik kelib chiqishiga, aminokislotalarning miqdori esa asalarilar tomonidan asal yig'ish va nektarni qayta ishlash sharoitiga bog'liq.

Shunday qilib, guldan olingan asallarda erkin aminokislotalarning asosini fenilalanin va prolin - mos ravishda 969 va 548 mg/kg ni tashkil qiladi. Misol uchun, mavrak(grechka)dan olingan asal tarkibida fenilalanin (1600 dan 2300 mg/kg gacha) ko'pligi bilan farqlanadi. Tabiiy asal tarkibidagi prolin miqdori erkin aminokislotalarning umumiy tarkibining 45-85% (o'rtacha 67%) ni tashkil qiladi.

Aminokislota tarkibini aniqlash uchun asalning to'rtta namunasi tanlab olindi: №1 – 2019-yilda yig'ilgan baland tog' asali, №2 – Toshkent viloyatida 2021-yilda paxta gulidan olingan asal, №3 –2020-yilda Jizzax viloyatidagi dasht gullaridan olingan asal, №4- 2019-yilda Samarqand viloyati paxta gulidan olingan asal. Tanlangan namunalar Agilent Technologies xromotografida tahlil qilinib, 2-namunamiz bo'yicha quyidagicha xromogramma olindi (5- rasm)



5- rasm. Toshkent viloyati paxta gulidan olingan asalning aminokislotalar bo'yicha tahlili.

Tadqiq etilgan namuna xromatogrammasi bo'yicha 14,050 daqiqada olingan cho'qqi asal tarkibida 0,679296 mg/g miqdorida prolin borligini ko'rsatdi. 29,4 daqiqada olingan cho'qqi fenilalaninga, 21,168 daqiqada olingan cho'qqi esa sisteinga tegishli. Bu namunada xromatogrammasidan treonin, metionin, leytsin aminokislotalari mavjud emasligi ko'rinadi.

Asalning to'rtta o'rganilgan namunalaridagi aminokislotalarning tarkibi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Asal namunalaridagi aminokislotalar bo'yicha tahlil natijalari (mg/g)

Aminokislotalaning nomlanishi	Namuna №1	Namuna №2	Namuna №3	Namuna №4
Serin	0,037403	0,072078	0,16039	0,027532
Glitsin	0,0318	0,045332	0	0,127368
Aspargin	0,031006	0,046041	0	0,131074
Glutamin	0,008859	0,311621	0,475899	0
Sistein	0	0,612462	0	0
Treonin	0	0	0	0,051881
Argenin	0	0,014805	0	0
Alanin	0,075345	0,176303	0,027262	0
Prolin	0,023424	0,679296	0,013601	0,032275
Tirozin	0,227171	1,098241	1,177957	0
Valin	0,188342	0,253972	0,206304	0,211485
Metionin	0	0	0	0
Izoleytsin	0,006883	0,031031	0	0
Leytsint	0,001683	0	0	0
Gistidin	0,046101	0,0625	0,040634	0
Triptofan	0,069252	0,009142	0,016709	0
Fenilalanin	0,975756	1,078372	1,167794	1,112201
Lizin HCl	0,017908	0,016403	0,026387	0,026941

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asalning haqiqiyli va tabiiyligini, shuningdek sifati va xavfsizligini aniqlashda aniq xulosaga kelish uchun bir qator tadqiqotlar o'tkazilishi kerakligini ko'rsatadi. Asalning tabiiyligini o'rganishda, botanik kelib chiqishi, sifati, uglevodlar miqdori va diastaza sonini aniqlashdan tashqari, aminokislotalar tarkibini, xususan, prolinni ham o'rganish tavsiya etiladi. Ushbu ko'rsatkichlar tabiiy asalga yangi TIF TN ga xos xalqaro kod raqami berishda asosiy mezon bo'lib hisoblanadi.

“Tabiiy asal” O‘zbekiston Respublikasi TIF TN ning I bo‘lim 4-guruh 0409 tovar pozitsiyasi 0409 00 subpozitsiyasidan o‘rin egallagan. Asalning iste‘mol qiymati turlicha bo‘lishidan qat‘i nazar, u bojxona rasmiylashtiruvda Bojxona yuk deklaratsiyasining 33 grafasida bitta kod, ya‘ni 0409 00 000 0 bilan tasniflanadi. Asalning iste‘mol xususiyatlarini inobatga olgan holda TIF TN dagi uning botanik kelib chiqishi va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari asosida kodini detallashtirib, yanada aniq tasniflasak, bu bilan tabiiy asalni iste‘mol qiymati va fizik – kimyoviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha sinflash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Olib borilgan tadqiqotlar tabiiy asal uchun tovar kodlarini belgilashda uning botanik kelib chiqishi bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi.

Tabiiy asalga TIF TN bo'yicha tasniflash va ulardan undirilgan bojxona to'lovlarini to'g'ri va to'liq undirilishini ta'minlash maqsadida, 0409 tovar subpozitsiyasida yangi TIF TN kod raqamlari taklif etildi (4-jadval).

4- jadval

Tabiiy asal uchun taklif etilgan TIF TN kod raqamlari

Amaldagi TIF TN kod raqami	Taklif etilgan TIF TN kod raqamlari	Tovar nomlari	Asaldagi prolin miqdori , mg/kg
0409 00 000 0		- Gul asali:	
	0409 00 000 1	- - paxta gulidan olingan asal	300 dan 500 gacha
	0409 00 000 2	- - mavrak (grechka) gulidan olingan asal	500 dan 600 gacha
	0409 00 000 3	- - jo'ka(lipa) gulidan olingan asal	250 dan 300 gacha
	0409 00 000 5	- - aralash o't gullaridan olingan asal	250 dan 400 gacha
	0409 00 000 6	- obinavot (padeviy)	100 dan 200 gacha
	0409 00 000 9	- boshqalar	

Tabiiy asal bilan aralashgan yoki aralashmagan "Sun'iy asal" esa O'zbekiston Respublikasi TIF TNning IV bo'lim 17-guruh

1702 tovar pozitsiyasi va 1702 90 subpozitsiyasida hamda 1702 90 950 0 podsubpozitsiyasidan o'rin egallagan. Shunga ko'ra biz tomonimizdan sun'iy asal uchun tavsiya etilayotgan kod raqamlari 5- jadvalda keltirilgan.

5- jadval

Sun'iy asal uchun taklif etilgan TIF TN kod raqamlari

Amaldagi TIF TN kod raqami	Taklif etilgan TIF TN kod raqamlari	Tovar nomlari
1702 90 950 0		- - sun'iy asal:
	1702 90 950 1	- - - tabiiy asal bilan aralashgan sun'iy asal
	1702 90 950 2	- - - boshqalar
	1702 90 950 9	- - boshqalar

Dissertatsiyaning «Tabiiy asalni sertifikatlashtirish jarayonini takomillashtirish», deb nomlangan to'rtinchi bobida asalni identifikatsiya qilish uchun xalqaro va milliy standartlar mutanosibligi tahlil qilingan, xalqaro standartlar talablarini o'rganish natijasida asal eksport qiluvchi korxonalar uchun

takliflar berilgan, qo‘shimchalar bilan tabiiy asal ishlab chiqarish uchun texnikaviy shartlar Ts 28419083-01:2022 tashkilot standarti ishlab chiqilgan.

Qo‘shimchalar bilan tabiiy asal uchun biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tashkilot standarti asalga qo‘shiladigan qo‘shimchalarga bog‘liq holda quyidagi assortimentda ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan:

«BARAKA-1» mahsulotining tarkibiy ulushi quyidagicha etib belgilangan: tabiiy asal- 82%, muskat yong‘og‘i-1%, xandon pista-15%, dolchin-2%;

«BARAKA-2» mahsulotining tarkibiy ulushi quyidagicha etib belgilangan: tabiiy asal-60% grek yong‘og‘i-10%, bodom-10%, xandon pista-10%, anis-2%, mayiz-8%;

«BARAKA-3» mahsulotining tarkibiy ulushi quyidagicha etib belgilangan: tabiiy asal- 80%, grek yong‘og‘i -10%, quritilgan olho‘ri -10%.

Ts 28419083- 01:2022 tashkilot standarti talablari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulot O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasining IV- bo‘lim, 21- guruh, 2106909809 tovar kodi ostida tasniflanadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotni Ts 28419083- 01:2022 tashkilot standarti talablariga muvofiqligi baholash uchun «SIFAT – CENTER» sertifikatlashtirish idorasi faoliyatiga tadbiq etish uchun sinov dasturi ishlab chiqildi. Biz tomonimizdan yangi tovar uchun ishlab chiqilgan tashkilot standarti hamda uning talablariga muvofiqlikni baholash uchun ishlab chiqilgan sinov dasturi sertifikatlashtirish sohasini yanada takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish uchun imkon yaratdi.

Iqtisodiy samaradorlik

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston Respublikasida asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sub‘yektlar soni tobora ortib bormoqda. Bu sohani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbilar natijasida asalarichilik mahsulotlarining hajmi sezilarli ortgan. Xususan, 2021 yilda 25076 tonna asal yetishtirilgan bo‘lib, 2020 yilga nisbatan 17,1% ga ortgan.

Asalarichilik bilan shug‘ullanvchi xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar tomonidan 2021 yilda 27,3 tonna tabiiy asal xorijga eksport qiligan (6-jadval).

6-jadval

2018-2021 yillardagi asal eksporti bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlar

TIF TN kod	Tovar nomi	Eksport							
		2018 y.		2019 y.		2020 y.		2021 y.	
		hajmi, t.	ming AQSH dollari						

6-jadval davomi

0409000000	Tabiiy asal	78,4	180,0	22,6	51,7	49,1	99,1	27,3	60,6
-------------------	--------------------	-------------	--------------	-------------	-------------	-------------	-------------	-------------	-------------

Ushbu 6-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yildan-yilga tabiiy asal eksport hajmi kamayib bormoqda. 2018 yilda tabiiy asal eksporti 180,0 ming AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yil holatiga ko‘ra 60,6 ming AQSH dollarini tashkil etgan.

Respublikamizda tabiiy asalga bo‘lgan talab ortib borayotganligini tabiiy asal importining ortishida ham ko‘rishimiz mumkin (7-jadval).

7-jadval

2018-2021 yillardagi asal import bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlar

TIF TN kod	Tovar nomi	Import							
		2018 y.		2019 y.		2020 y.		2021 y.	
		hajmi, t.	ming AQSH dollari	hajmi, t.	ming AQSH dollari	hajmi, t.	ming AQSH dollari	hajmi, t.	ming AQSH dollari
0409000000	Tabiiy asal	23,4	46,3	55,0	65,8	110,2	157,0	210,9	320,2

2021 yilda tabiiy asal importi 210,9 tonnani tashkil etgan, bu ko‘rsatkich 2018 yilda 23,4 tonnani tashkil etib, 9 barobarga ortgan.

Shuningdek, sun‘iy asal importi hajmi ham talabga qarab ortib bormoqda. 2021 yilda sun‘iy asal importi 46,0 tonnani tashkil etgan va bu 2018 yilga nisbatan (6,2 tonna) 7,4 barobarga ko‘p demakdir.

Aholining asalli mahsulotlarga bo‘lgan talabini inobatga olgan holda qushimchalar bilan tabiiy asal ishlab chiqarishda MCHJ “YAXSHI NIYAT BARAKA” korxonasi iqtisodiy samaradorligini hisoblash o‘rinli. Bunda 8-jadval asosida hisoblashlar olib borilgan.

8- jadval

ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR HISOBI

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati ko‘rsatkichlarining solishtirma tahlili						
№	Yillik ishlab chiqarish hajmi (kg)	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi (ming so‘m)	Korxonaning baxosi QQS siz (ming.so‘m)	Korxonaning erkin sotish bahosi QQS bilan (ming so‘m)	Mahsulot sotishdan olingan sof foyda (ming so‘m)	Korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyati mahsulot turlari bo‘yicha rentabelligi (%)

8- jadval davomi

Baraka 1	28000	1365280	1960000	2254000	476000	32
Baraka 2	21000	1023960	1365000	1569750	252000	22
Baraka 3	18 500	833980	1110000	1276500	203500	22

8-jadval ma'lumotlariga ko'ra 3 turdagi mahsulot ishlab chiqarishda mos ravishda 32%, 22%, 22% ni tashkil etadi. Korxonada sof foydasi yiliga umumiy 931500 ming so'mni tashkil etadi.

XULOSALAR

Asalni fizik-kimyoviy tadqiq etish, uni tovarlar nomenklaturasi bo'yicha sinflash va sertifikatlash hamda ularning xavfsizlik bilan o'zaro bog'liqligi borasidagi izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. Ilk bor tabiiy asalning kimyoviy tarkibi, botanik kelib chiqishi va iste'mol xossalari asosida unga yangi tovar kodlarini belgilashning ilmiy uslubiy asoslari yaratildi hamda ularga tavsifnoma va izohlar tayyorlandi.

2. Asalning sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida o'rganilib, uning yetukligi va tabiiylikni aniqlashda prolin aminokislotasini baxs va munozarali holatlarda tahlil qilinishi lozim bo'lgan muhim ko'rsatkich sifatida olinib, uni aniqlash bo'yicha usul bojxona organlari faoliyatiga joriy etildi.

3. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, bojxona organlari uchun tabiiy asalning tovar holatini belgilovchi organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari hamda iste'mol xossalari muvofiq mazkur tovarlarning kod raqamlarini ularning botanik kelib chiqishi asosida belgilash bojxona organlariga tavsiya etildi.

4. Ilk bor tabiiy asalning botanik kelib chiqishi, kimyoviy tarkibi va iste'mol xossalari asosida, tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha: 0409 00 000 1 – paxta gulidan olingan, 0409 00 000 2 – mavrak gulidan olingan, 0409 00 000 3 – jo'ka gulidan olingan, 0409 00 000 5– turli o'simliklar gulidan olingan; 0409000006 – obinavot, 0409 00 000 9 – boshqalar.

Sun'iy asalning iste'mol xossalari asosida tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha: 1702 90 950 0 – sun'iy asal, 1702 90 950 1 – tabiiy asal bilan aralashgan, 1702 90 950 2 –“boshqalar” uchun yangi kod raqamlari tavsiya etildi.

5. Ilk bor asalli mahsulotlar turini ko'paytirish orqali iste'mol bozorini kengaytirish maqsadida qo'shimchalar bilan tabiiy asal ishlab chiqarish uchun texnikaviy shartlar Ts 28419083-01:2022 tashkilot standarti ishlab chiqilib, mahsulotning sifat va havfsizligini belgilovchi talablar o'rnatildi.

6. Qo'shimchalar bilan tabiiy asal ishlab chiqarish uchun yaratilgan tashkilot standarti talablariga muvofiqlikni baholash maqsadida «SIFAT – CENTER» sertifikatlash idorasining akkreditlangan sinov laboratoriyasi uchun o'zida sinov usullariga havolalarni aks etgan dastur ishlab chiqildi.

7. Sertifikatlash tizimini takomillashtirish maqsadida oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash bo'yicha texnik reglament talablari asosida ilk bor tabiiy asal uchun kompleks sinov dasturi ishlab chiqildi hamda "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" Davlat muassasasi va uning xududiy filiallarida joriy qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/29.10.2021 К/Т.60.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

САЙФУЛЛАЕВА ЗАЙНАБ СУННАТ КИЗИ

**ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МЁДА, ЕЁ
КЛАССИФИКАЦИЯ И СЕРТИФИКАЦИЯ ПО ТОВАРНОЙ
НОМЕНКЛАТУРЕ, ТАКЖЕ ИХ ВЗАИМОСВЯЗЬ С
БЕЗОПАСНОСТЬЮ**

02.00.09 – Химия товаров

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СТЕПЕНЬ ДОКТОРА
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2021.2.PhD/T1711 Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Ташкентском химико-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещена веб-странице по адресу www.ikti.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу www.ziyonet.uz

Научный руководитель:

Хамракулов Гофуржон
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Ахмадалиев Махамаджон
Ахмадалиевич
доктор технических наук, профессор

Абдуллоев Обиджон Шахобиддинович
доктор химических наук, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита состоится 13 iv 2023 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 при Андижанском государственном университете по адресу: 170100, г.Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: (+99877) 223-88-30; факс: (+99871) 223-84-33; e-mail: gbshax@mail.ru

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета за №___, с которой можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре (170100, г.Андижан, ул. Университетская, 129). Тел.: (+99877) 223-88-30.

Автореферат диссертации разослан 13 iv 2023 года
(реестр протокола рассылки № 14 от 13 iv 2023 года.



Х.Исаков

Председатель Научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н., профессор

М.М.Муминжанов

Член Научного совета по присуждению
ученой степени, д.х.н. (DSc).

Ш.В.Абдуллаев

Председатель Научного семинара при научном совете
по присуждению ученой степени, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире одной из приоритетных задач современности является поставка качественных и безопасных продуктов питания на потребительские рынки в целях поддержки здоровья населения. Один из целебных продуктов – натуральный мед, содержит свыше ста незаменимых и полезных для организма человека биологических веществ, а также важные для функционирования организма глюкозу, белок, фруктозу, органические кислоты, аминокислоты, микро- и макроэлементы. С этой точки зрения большое значение имеет научная работа по обеспечению качества и безопасности натурального меда, исследование его потребительских свойств физико-химическими методами и определение на их основе критериев безопасности поставляемого населению.

В мире на сегодняшний день проводятся научные исследования в направлении совершенствования таможенной экспертизы пищевых продуктов, либерализация внешнеэкономической деятельности, идентификация товаров, предотвращение подмены товаров, определении сведений о соответствии наименований товаров в представляемых документах к тексту товарной позиции и примечаниям раздел и групп товарной номенклатуры внешнеэкономической деятельности (ТН ВЭД). Современными методами исследуются такие физико-химические показатели мёда, богатого полезными для организма человека микро- и макроэлементами, как его физико-химические свойства, ботаническое происхождение, углеводный состав и другие.

В нашей стране за последние годы в целях достижения экономической стабильности за счет обеспечения здоровья населения и повышения экспортного потенциала страны реализован ряд мер по поставке потребителям качественной и безопасной продукции. В связи с этим проводятся научные исследования по увеличению товарооборота и совершенствованию методических приемов идентификации товаров для таможенных целей, упрощению процесса принятия решений участниками внешнеэкономической деятельности (ВЭД) и должностными лицами таможенных органов по классификация товаров на основе ВЭД. Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы ориентирована на «либерализацию и упрощение экспортной деятельности, диверсификацию состава и географии экспорта, расширение и мобилизацию экспортного потенциала отраслей и регионов экономики, совершенствование таможенной экспертизы»². При этом важно проводить научные исследования в направлении дальнейшей модернизации и диверсификации на качественно новом уровне.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, постановленных в Указах Президента Республики Узбекистан УП №60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № –60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы».

Узбекистана на 2022 — 2026 годы», УП №5582 от 24 ноября 2018 года «О дополнительных мерах по совершенствованию таможенного администрирования органов государственной службы Республики Узбекистан» и ПП № 3327 от 16 октября 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию отрасли пчеловодства в Республики Узбекистан», а также в других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики. Данная диссертационная работа выполнялась в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики: VII «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы.

Исследования качества и безопасности меда, в особенности создание и совершенствование методов выявления фальсификации меда, проводились во многих странах мира. Научные исследования проводились такими учеными, как И.П.Чепурным, В.И.Заикиной, Е.В. Корниенко, Н.А.Гриневич, О.А.Яровой, Стефан Богдановым, А.П.Звягиной, В.Г.Чудаковым

